

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI**

**DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARINING FAOLIYATI OCHIQLIGINI  
TA’MINLASH, SHUNINGDEK, JAMOATCHILIK NAZORATINI SAMARALI AMALGA  
OSHIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta’minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1. Barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) tomonidan Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxati [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) Adliya vazirligi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda tahlillar asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxatini yanada kengaytirish bo‘yicha doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritib borsin.

2. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq davlat organlari va tashkilotlari:

a) har yili:

1-martga qadar o‘z faoliyatiga oid hisobotni (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno) rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, 10-martga qadar uni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida xabar beradi;

1-aprelga qadar o‘z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlarini o‘tkazadi;

b) 2021-yil 1-iyuldan boshlab quyidagilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma’lumotlar portaliga (keyingi o‘rinlarda — Portal) va o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, ularni har chorakda yangilab boradi:

amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xoriydan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog‘liq xarajatlar, bundan davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar mustasno);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bilan soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar, shu jumladan individual imtiyozlar berilgan subyektlarning benefitsiarlari (yakuniy manfaatdor jismoniy shaxslari), ular tomonidan to‘langan soliqlar va moliyaviy ko‘rsatkichlar;

o‘zlarining yillik xarajatlar smetasi va uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’minlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish xarajatlari;

v) 2021-yil 1-iyuldan boshlab o‘z huzurida faoliyat yurituvchi jamoatchilik kengashlari bilan birgalikda rasmiy veb-saytlarida quyidagi ma’lumotlarni joylashtirib, ularning har chorakda yangilanib borilishini ta’minlaydi:

jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a’zolari haqidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma’lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari);

jamoatchilik kengashining yig‘ilishlari va kun tartibidagi masalalar;

davlat xaridlarini amalga oshiruvchi komissiyaning tasdiqlangan a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi);

litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan organlarning hududlar kesimida mas'ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi).

3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Davlat test markazining quyidagi imtihonlarni o'tkazish jarayonini Internet tarmog'ida jonli efirga uzatish tartibini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin:

oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish uchun test va ijodiy (kasbiy) imtihonlar;

oliy ta'lim muassasalarining magistratura (klinik ordinatura) bosqichiga qabul imtihonlari; respublikadagi yoki xorijdagi oliy ta'lim muassasasidan respublikadagi davlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishni ko'chirish istagini bildirgan talabalardan olinadigan imtihonlar;

xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olishda talabgorlardan olinadigan test sinovlari.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Davlat test markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda:

tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarni jalb qilgan holda 2021/2022 o'quv yili qabuliga qadar "transfer.edu.uz" platformasi negizida mazkur bandda ko'rsatilgan imtihon jarayonlarini Internet tarmog'ida jonli efirga uzatishni ta'minlaydigan, barcha foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan "imtihon.uz" veb-platformasini ishga tushirsin;

bir oy muddatda imtihonlarni (test sinovlarini) o'tkazish jarayonini Internet tarmog'ida jonli efirga uzatish bo'yicha texnik talablarni (o'rnatiladigan videokameralar va tasvir sifati, joylashish sxemasi va boshqalar) ishlab chiqsin;

mazkur bandda ko'rsatib o'tilgan talablarga rioya qilmaydigan mas'ullarga nisbatan qat'iy javobgarlik choralarini ko'rish bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Hukumatga kiritib borsin.

4. Quyidagilar 2021-yil 1-iyuldan boshlab qayd etilgan ma'lumotlarni Portalga joylashtirish va ularning har chorakda yangilanishini ta'minlasin:

Hisob palatasi, Moliya vazirligi, nazorat qiluvchi organlar — davlat siri bo'lgan ma'lumotlarning yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning muhofaza qilinishini ta'minlagan holda o'tkazilgan har bir taftish va tekshiruv (nazorat obyektini nomi, taftish yoki tekshiruvning maqsadi va muddatlari, uni o'tkazgan davlat xizmatchisining lavozimi, familiyasi, ismi) to'g'risidagi ma'lumotlarni (tegishli nazorat qiluvchi organning rahbarini xabardor etgandan so'ng);

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi — ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar hamda davlat unitar korxonalari (keyingi o'rinlarda — davlat ishtirokidagi korxonalar) ro'yxatini (davlat nomidan aksiyador (ishtirokchi, mulkdor) funksiyalarini amalga oshirayotgan tashkilot, korxonalar hududi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, davlat ulushi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda), shuningdek, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxatini;

Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari — o'zlari aksiyador (ishtirokchi, mulkdor) funksiyalarini bajaruvchi davlat ishtirokidagi korxonalarining ijroiya organi (direktor, boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari) va kuzatuv kengashi a'zolarining ismi va familiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

Davlat soliq qo'mitasi — davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan yil (chorak) yakuni bo'yicha to'langan dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

Moliya vazirligi — davlat ishtirokidagi korxonalariga sarflangan Davlat budjeti mablag‘lari, tegishli xaridlar, jalb etilgan mablag‘lar, shu jumladan davlat tashqi qarzi summalari hamda ularning sarflanishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi — davlat muassasalari ro‘yxatini (tashkil topgan sanasi, yuqori turuvchi organ) hamda xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni (davlat sirini tashkil etuvchi maxfiy vazifa yuklatilgan davlat korxonalari va muassasalari bundan mustasno).

5. Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-sentabrga qadar Portalning davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali bilan integratsiya qilinishini ta‘minlasin.

6. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi 2021-yil 1-avgustga qadar doimiy ravishda yangilab turiladigan Ov qilish va ovchilik xo‘jaliklari to‘g‘risidagi axborot bazasini Qo‘mitaning rasmiy veb-saytida va Portalda ishga tushirsin.

Bunda, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi bilan birgalikda “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 36-moddasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar bilan bir qatorda quyidagi ma‘lumotlar mazkur axborot bazasida aks ettirilishini ta‘minlasin:

ovchilik xo‘jaligini yuritish uchun ov qilish joylarini berish to‘g‘risidagi tuzilgan barcha shartnomalar, ovchilik xo‘jaligini yuritish huquqi tugatilgan holatlar hamda undirilgan haq miqdorlari;

yovvoyi hayvonlarni tutishga doir ruxsatnoma berilgan barcha shaxslar va ruxsatnomadagi ma‘lumotlar hamda undirilgan haq miqdorlari;

O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni tabiiy muhitdan ajratib olishga doir berilgan barcha ruxsatnomalar va ulardagi ma‘lumotlar hamda undirilgan haq miqdorlari;

O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasining o‘rmon-ovchilik xo‘jaliklari tomonidan berilgan ovchilik yo‘llanmalari (yovvoyi hayvonlarni tutish kartochkasi) hamda undirilgan haq miqdorlari.

7. Agentlikning davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash borasidagi vazifalarini belgilash maqsadida:

a) Agentlik zimmasiga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatilsin:

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish, shu jumladan ularning normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan ma‘lumotlarni Internet tarmog‘iga joylashtirish (e‘lon qilish) bo‘yicha majburiyatlari hisobini yuritish;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan ommaviy axborot vositalari orqali samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish bo‘yicha choralarning ishlab chiqilishi va joriy etilishiga ko‘maklashish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlaridan kelib chiquvchi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligiga oid dolzarb masalalarni “Mening fikrim” veb-portali orqali umumxalq muhokamasiga chiqarish;

Ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxatini uzluksiz to‘ldirish, takomillashtirib borish va yangilab borish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishga ko‘maklashish;

ommaviy axborot vositalari orqali davlat organlari va tashkilotlari xizmatchilariga “davlat organlari faoliyati ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligi” madaniyatini singdirish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar xalq oldida hisobdorligini ta‘minlash muhimligi to‘g‘risida tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etish;

b) Agentlik tuzilmasida boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta‘minlash boshqarmasi tashkil etilsin;

v) Agentlik:

davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan talablarni muntazam ravishda buzayotgan aybdor mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritib borsin;

har yili faoliyat yo'nalishi bo'yicha erishgan asosiy yutuqlar hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida uchrayotgan kamchiliklar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot tayyorlasin va o'z rasmiy veb-sayti orqali e'lon qilib borsin;

“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi **Qonun** amalga oshirilishi ustidan nazoratni, shuningdek, Jahon odil sudlov loyihasining “Hukumatning ochiqligi” indikatori bo'yicha O'zbekiston Respublikasining o'rmini yaxshilashga oid kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

8. Davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari hamda murojaatlar bilan ishlash bo'linmalariga mazkur organlarda ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarining ijro etilishini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

9. Davlat xavfsizlik xizmati Adliya vazirligi, Agentlik hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi “Davlat sirlarini saqlash to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonun loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritilishini ta'minlasin:

cheklab qo'yilgan axborotlar ro'yxati, undan foydalanish va ma'lumotlarni bunday axborotlar jumlasiga kiritish hamda chiqarish asoslari, muddatlari va tartibi;

cheklab qo'yilgan axborotlar ro'yxatiga kirmaydigan ma'lumotlarni maxfiylashtirishni taqiqlash;

cheklab qo'yilishi fuqarolarning shaxsiy xavfsizligiga tahdid soladigan axborotlarning davlat sirlariga kiritilishini man etish;

fuqarolar, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning davlat xizmatchilari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar bilan ishda foydalanishga ijozatni rasmiylashtirish shartlari va tartiblari;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va ilg'or tendensiyalarni hisobga olgan holda davlat sirlarini saqlashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

10. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik darajasini yanada oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

11. Agentlik Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Adliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda 2021-yil 1-oktabrga qadar davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni tartibga soluvchi, shu jumladan monitoring o'tkazish, amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash, ochiqlik indeksini hisoblashga qaratilgan Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikani ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritsin.

12. Belgilab qo'yilsinki, 2021-yil 1-dekabrda boshlab:

mazkur Farmonning **11-bandida** ko'rsatilgan metodika asosida har yil yakuni bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksi aniqlanadi;

Agentlik Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda Adliya vazirligi bilan birgalikda belgilangan tartibda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksini aniqlash bo'yicha choralarni ko'radi, natijalarni o'z rasmiy veb-saytlari va ommaviy axborot vositalari orqali ommaga yetkazilishini ta'minlaydi.

13. Oliy Majlis palatalariga o'z rasmiy veb-saytlarida quyidagi ma'lumotlarni joylashtirish tavsiya etilsin:

parlament nazorati obyektlarining hisobotlarini eshitish natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar;

Qonunchilik palatasida deputatning har bir qonun (qaror) loyihasini qabul qilish yoki rad etishdagi, senatorning har bir qonunni (qarorni) ma'qullash yoki rad etishdagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar;

Oliy Majlis Senati a'zosi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlari deputatlari, saylov okruglari hamda ularning elektron pochta manzillari haqidagi ma'lumotlar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

13<sup>1</sup>. Belgilab qo'yilsinki:

a) birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan:

har yili 1-aprelga qadar O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan hududlar, tuman (shahar)larga taqsimlangan mablag'lar bo'yicha ma'lumotlar;

har chorak yakuni bilan keyingi oyning 15-sanasigacha moliya yili davomida O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti va davlat maqsadli jamg'armalaridan ajratilgan subsidiyalar bo'yicha hudud, tuman (shahar)lar kesimidagi ma'lumotlar tegishli xalq deputatlari Kengashlariga taqdim etib boriladi;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotning tashqi auditi hamda uni baholash natijalari, shuningdek, kelgusi yil uchun tuzilgan budjet loyihasi bo'yicha Hisob palatasi xulosalarining tegishli Xalq deputatlari kengashlarining majlislaridagi muhokamasida Hisob palatasi mas'ullari ishtirok etishini tashkillashtiradi.

*(13<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF-227-sonli Farmoniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son)*

14. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va Agentlik:

a) O'zbekiston Milliy axborot agentligi bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarida mazkur Farmonning maqsad va vazifalarini yoritishga oid maqolalar va teleko'rsatuvlarni tashkil etsin;

b) manfaatdor davlat organlari va tashkilotlar bilan birgalikda 2021-yil 1-dekabrda boshlab quyidagi tadbirlar telekanallar, shuningdek, Internet tarmog'i orqali jonli efirga uzatilishini ta'minlasin:

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati majlislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi sessiyalari (yopiq majlislar bundan mustasno);

ta'riflarning roziligi bilan fuqarolar huquq va erkinliklari hamda jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi, aholi sog'lig'ini saqlash, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi, shu jumladan davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyati bilan bog'liq huquqbuzarliklarga oid ishlar, shuningdek, ayrim oilaviy nizolarga oid fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlislari (yopiq sud majlislari bundan mustasno).

15. Mazkur Farmonda ko'rsatilgan qoida va tartiblarning buzilishi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilik buzilishi sifatida baholansin.

16. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Agentlik, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda xalqaro standartlarni inobatga olgan holda:

2022-yil 1-yanvarga qadar "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun loyihasi konsepsiyasini;

2022-yil 1-aprelga qadar ushbu qonun loyihasini ishlab chiqsin hamda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritsin.

17. Agentlik Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritsin.

18. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 16-iyun,  
PF-6247-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoniga  
1-ILOVA

**Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik  
ma'lumotlar  
RO'YXATI**

*Oldingi tahrirga qarang.*

T/r	Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar)	Ma'lumot joylashtirilgan resurs	Taqdim etish va yangilash muddati	Joylashtirish uchun mas'ul davlat organlari va tashkilotlari
1.	Davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyatiga oid hisoboti (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).	Rasmiy veb-saytlar	Har yili 1-martga qadar	Davlat organlari va tashkilotlari
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bilan soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar, shu jumladan individual imtiyozlar berilgan subyektlar, ularning yakuniy benefitsiar (foyda oluvchi) jismoniy shaxslari, ularning to'lagan soliqlari va moliyaviy ko'rsatkichlari to'g'risidagi axborotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Moliya vazirligi
3.	Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari
4.	Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari
5.	Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar	Rasmiy veb-saytlar	doimiy ravishda	Davlat organlari va tashkilotlari



	(xarid e'lon qilinishidan kamida 6 oy oldin).			
6.	<p>Davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo'yicha tashkil etiladigan xarid komissiyalarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan:</p> <p>xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror;</p> <p>xarid komissiyasi a'zolarining ma'lumotlari (famiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi).</p>	Rasmiy veb-saytlar	doimiy ravishda	Davlat organlari va tashkilotlari
7.	<p>Davlat siri bo'lgan ma'lumotlarning yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning muhofaza qilinishini ta'minlagan holda tegishli o'tkazilgan har bir taftish va tekshiruv (nazorat obyekti nomi, nazorat tadbirining maqsadi va muddatlari, uni o'tkazgan davlat xizmatchisining lavozimi, famiyasi, ismi) to'g'risidagi ma'lumotlar (tegishli nazorat qiluvchi organning rahbarini xabardor etgandan so'ng).</p>	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorakda	Hisob palatasi, Moliya vazirligi, nazorat qiluvchi organlar
8.	<p>Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar hamda davlat unitar korxonalar (keyingi o'rinlarda — davlat ishtirokidagi korxonalar) ro'yxati (davlat nomidan aksiyador (ishtirokchi, mulkdor) funksiyalarini amalga oshirayotgan tashkilot, korxon hududi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, davlat ulushi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda), shuningdek, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxati.</p>	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorakda	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
9.	<p>O'zlari aksiyador (ishtirokchi, mulkdor) funksiyalarini bajaruvchi davlat ishtirokidagi korxonalarining ijroiya organi (direktor, boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari) va kuzatuv kengashi a'zolarining ismi va famiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar.</p>	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorakda	Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

				Toshkent shahar hokimliklari
10.	Davlat ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, ushbu korxonalariga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar tasarrufidagi yengil avtomobillar, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Kadastr agentligi, Davlat soliq qo'mitasi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
11.	Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan yil (chorak) yakuni bo'yicha to'langan dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorakda	Davlat soliq qo'mitasi
12.	Davlat ishtirokidagi korxonalar sarflangan Davlat budjeti mablag'lari, tegishlicha xorijdan jalb etilgan mablag'lar, shu jumladan davlat tashqi qarzi summalari hamda ularning sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorakda	Moliya vazirligi
13.	Davlat muassasalari ro'yxati (tashkil topgan sanasi, yuqori turuvchi organ) hamda xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar (davlat sirini tashkil etuvchi maxfiy vazifa yuklatilgan davlat korxonalar va muassasalari bundan mustasno).	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorakda	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
14.	Tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, Rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari
15.	Davlat organlari va tashkilotlari tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar, qurilishi tugallanmagan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar (tezkor-qidiruv, harbiy va boshqa maxsus xizmatlarda foydalaniladigan ashyolar bundan mustasno).	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari



16.	Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan organlarning hududlar kesimida mas'ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a'zolari (famiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi) to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-saytlar, shu jumladan "licence.gov.uz" sayti	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari
17.	Quyidagi litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar egalari: ismi va familiyalari: xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish; iste'mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish; bank faoliyatini amalga oshirish; mahalliy va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha temir yo'l transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni tashish; farmatsevtika faoliyati; ko'priklar va tonnellarni loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash faoliyati; neft, gazni (shu jumladan siqilgan tabiiy va suyultirilgan uglevodorod gazini) va gaz kondensatini qazib olish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish faoliyati; magistral gaz quvurlari, neft quvurlari va neft mahsulotlari quvurlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish hamda ularni ta'mirlash faoliyati; import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazish va ro'yxatga olish; davlat o'rmon fondiga kirmaydigan zaxira yerlarida pichan o'rish va chorva mollarini o'tlatish.	Rasmiy veb-saytlar, shu jumladan "licence.gov.uz" sayti	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari
18.	Tegishli yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalar egalari, taqdim etilgan uchastka (maydonlar, foydali qazilmalar) to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
19.	Daryolar o'zanlarida qum-shag'al materiallarini qazib olish ishlariga Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	har chorakda	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza

	qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi "Xavfsiz daryo boshqarmasi" davlat muassasasi tomonidan belgilangan tartibda shartnoma asosida jalb etilgan tadbirkorlik subyektlari va boshqa tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlar.			qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
20.	O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun berilgan barcha ruxsatnomalar egalari to'g'risidagi ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	har chorakda	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
21.	O'zbekiston Respublikasi davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros obyektlari hududida tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun berilgan ruxsatnoma egalari to'g'risidagi ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Turizm va sport vazirligi, Madaniyat vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
22.	Davlat oliy ta'lim muassasalarining daromadlari, xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan davlat organlari
23.	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalariga mulk yoki ijara huquqini elektron auksion ("E-AUKSION") orqali sotib olgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi
24.	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga ijara huquqini berish bo'yicha ochiq tanlov g'oliblari bo'lgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
25.	Mahalliy budjetlarning har chorak yakunida shakllantiriladigan daromadlar va xarajatlar smetasi, reждан orttirib bajarilgan qismi va mazkur mablag'lar yo'naltirilgan maqsadlar to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	har chorak yakunida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, tuman va shahar hokimliklari
26.	Quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlar:	Rasmiy veb-saytlar	har oyda	Ichki ishlar vazirligi,

	maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari o'rnatilgan aniq manzillar; individual tartibda har bir dasturiy-texnik vositasi qayd etadigan yo'l harakati qoidalari buzilishi turi.			Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi
27.	Ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam olayotgan shaxslar (14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam hamda un va qoliqli non xarid qilish bo'yicha qo'shimcha xarajatlarni qoplash uchun har oylik pulli kompensatsiyani olayotganlar) haqida hamda ishsizlik nafaqasini olayotgan shaxslar (famiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan sanasi) to'g'risidagi viloyat, tuman, shaharlar kesimidagi ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi
28.	Uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan shaxslarning ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badal va (yoki) foizlarning bir qismini qoplash uchun Davlat budjeti mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratish haqida bergan arizalari ro'yxati (navbati) to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	doimiy ravishda onlayn rejimda	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, tuman va shahar hokimliklari
29.	Davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan: jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari); jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar.	Rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari
30.	Davlat organlari va tashkilotlarining tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejalari (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).	Rasmiy veb-saytlar	har yarim yillikda (har yili)	Davlat organlari va tashkilotlari
31.	Davlat organlariga doimiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mol-mulklarni davlat-xususiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari

32.	Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning tashqi yoki ishonchli boshqaruvga berilgan davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, ishonchli boshqaruvchi tomonidan jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari
33.	<p>Ov qilish va ovchilik xo'jaliklari to'g'risidagi axborot bazasida quyidagilar haqidagi ma'lumotlarni aks ettirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>ovchilik xo'jaliklari;</li> <li>ov qilish taqiqlangan joylar;</li> <li>yovvoyi hayvonlarni tutishga doir ajratilgan kvota;</li> <li>ovchilik xo'jaligiga va insonning xo'jalik faoliyatiga zarar yetkazuvchi deb e'tirof etilgan yovvoyi hayvonlar;</li> <li>muayyan ov qilish joylarida ov qilish uchun taqiq belgilanganligi;</li> <li>yovvoyi hayvonlarning ayrim turlariga nisbatan ov qilish uchun taqiq belgilanganligi;</li> <li>muayyan jinsdagi va yoshdagi yovvoyi hayvonlarga nisbatan ov qilish uchun taqiq belgilanganligi;</li> <li>ovchilik xo'jaligini yuritish uchun ov qilish joylarini berish to'g'risidagi tuzilgan barcha shartnomalar, ovchilik xo'jaligini yuritish huquqi tugatilgan holatlar hamda undirilgan haq miqdorlari;</li> <li>yovvoyi hayvonlarni tutishga doir ruxsatnoma berilgan barcha shaxslar va ruxsatnomadagi ma'lumotlar hamda undirilgan haq miqdorlari;</li> <li>O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni tabiiy muhitdan ajratib olishga doir berilgan barcha ruxsatnomalar va ulardagi ma'lumotlar hamda undirilgan haq miqdorlari;</li> <li>O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining o'rmon-ovchilik xo'jaliklari tomonidan berilgan ovchilik yo'llanmalari (yovvoyi hayvonlarni tutish kartochkasi) hamda undirilgan haq miqdorlari.</li> </ul>	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlar	2021-yil 1-avgustdan boshlab doimiy ravishda	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi
34.	O'zlarining tarkibiga kiruvchi davlat muassasalarining nomi, faoliyat turi, funktsiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	Har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari

35.	Davlat budjeti, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shu jumladan istiqbolli investitsiya va infratuzilma loyihalari boʻyicha ularning asosiy texnik koʻrsatkichlari va boshqa loyiha hujjatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	har yarim yillikda	Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, masʼul vazirlik va idoralar (loyiha tashabbuskorlari)
36.	Hududlar kesimida “Haj” tadbirlariga borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarning yagona onlayn navbati toʻgʻrisidagi (ziyosatga boruvchi shaxsning arizasi navbatga qoʻyilgan sana, roʻyxatdagi tartib raqami va ziyorat turi) maʼlumotlar.	Rasmiy veb-sayt	har chorakda	Oʻzbekiston musulmonlari idorasi
37.	Bolalarni davlat maktabgacha taʼlim tashkilotiga qabul qilish uchun berilgan arizalar navbati (roʻyxati) toʻgʻrisidagi (ariza navbatga qoʻyilgan sana, roʻyxatdagi tartib raqami, yosh guruhi hamda tashkilot raqami) maʼlumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi, hududiy maktabgacha va taʼlimi boshqarmalari
38.	Davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yoʻriqnoma yoki boshqa ichki idoraviy hujjat)	Rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari
39.	Boʻsh ish oʻrinlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qoʻyiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim boʻlgan hujjatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	har oyda	Davlat organlari va tashkilotlari
40.	Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari haqidagi maʼlumotlar, shu jumladan gʻolib boʻlgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi maʼlumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	har yarim yillikda	Davlat organlari va tashkilotlari
41.	Budjet tizimi budjetlari mablagʻlari hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlar smetasi, sarflangan mablagʻlar, shartnomalar (tovar/xizmatlarni yetkazib beruvchilar)	Rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Davlat organlari va tashkilotlari

	hamda qabul qilingan tovarlar va xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar.			
42.	Budjet tizimi budjetlari mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlar smetasi va ularga asosan amalga oshirilgan xarajatlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish bo'yicha imzolangan shartnomalar hamda ular asosida qabul qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) hamda obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar	Rasmiy veb-saytlar	har chorakda	Barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, davlat unitar korxonalari

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF-227-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoniga  
2-ILOVA

### Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik darajasini yanada oshirish bo'yicha “YO'L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	<p>Xalqaro standartlarni inobatga olgan holda, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonun loyihasini ishlab chiqish:</p> <p>“shaffoflik, ochiqlik va hisobdorlik” tamoyili ostida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;</p> <p>jismoniy va yuridik shaxslarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ta'minlash;</p> <p>davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ma'lumotlari ochiqligi prezumpsiyasini joriy etish, unga muvofiq, qonunchilik hujjatlari bilan</p>	<p>Qonun konsepsiyasi</p> <p>Qonun loyihasi</p>	<p>2022-yil 1-yanvar</p> <p>2022-yil 1-aprel</p>	<p>Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Adliya vazirligi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, “Yuksalish” umummilliy harakati, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

<p>cheklanmagan har qanday ma'lumotni ochiq ma'lumot hisoblash;</p> <p>fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va jamoat tashkilotlari istalgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan o'z huquq va manfaatlariga oid ma'lumot yoki hujjatlarni (davlat sirlaridan tashqari) so'rab olishlari mumkinligi, ushbu organlar esa bunday murojaatni ko'rib chiqishga majburligini nazarda tutish;</p> <p>davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rahbarlari yoki axborot xizmatlari rahbarlari (matbuot kotiblari) tegishlicha jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan matbuot anjumanlari, brifinglar, media sayohatlar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor ravishda shaxsan axborot taqdim etib borishini nazarda tutish;</p> <p>mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlarining faoliyatiga oid ma'lumotlarni aholiga yetkazish, shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish jarayoniga fuqarolarni jalb etish uchun choralar ko'rish va ko'maklashish.</p>			
<p>2. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi <a href="#">kodeksda</a> davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish.</p>	Qonun loyihasi	2021-yil avgust	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
<p>3. Xalqaro standartlarni inobatga olgan holda, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tahrirdagi "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun loyihasini ishlab chiqish:</p> <p>cheklab qo'yilgan axborotlar ro'yxati, undan foydalanish hamda ma'lumotlarni bunday axborotlar jumlasiga kiritish hamda chiqarish asoslari, muddatlari va tartibini belgilash;</p>	Qonun loyihasi	2021-yil avgust	Davlat xavfsizlik xizmati, Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar



<p>cheklab qo'yilgan axborotlar ro'yxatiga kirmaydigan ma'lumotlarni maxfiylashtirishni taqiqlash;</p> <p>cheklab qo'yilishi fuqarolarning shaxsiy xavfsizligiga tahdid soladigan axborotlarning davlat sirlariga kiritilishini man etish;</p> <p>fuqarolar, davlat organlari va tashkilotlarning davlat xizmatchilari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar bilan ishda foydalanishga ijozatni rasmiylashtirish shartlari va tartiblarini belgilash;</p> <p>axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda davlat sirlarini saqlashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish.</p>			<p>agentligi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
<p>4. Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-dekabrda 355-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo'yiladigan asosiy talablarga quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish:</p> <p>a) yil davomida o'tkaziladigan hisobot (hay'at) yig'ilishlarining videoyozuvlari va ular yakuni bo'yicha qabul qilingan qarorlar;</p> <p>b) ochiq ma'lumotlar shaklida budjet hamda budjetdan tashqari jamg'armalarning tushumlari va xarajatlari, shuningdek, amalga oshirilgan davlat xaridlari bo'yicha ma'lumotlar;</p> <p>v) rasmiy veb-saytda joylashtirilishi majburiy bo'lgan axborotlarni yangilab borish davriyligi muddatini axborotlarning dinamik (o'zgaruvchan) va statistik turlariga qarab tasniflagan holda amalga oshirish;</p> <p>g) veb-saytda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati bo'yicha alohida sahifa tashkil qilgan holda, unga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlarni kiritib borish:</p> <p>korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, shu jumladan ushbu</p>	<p>Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi</p>	<p>2021-yil sentabr</p>	<p>Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Moliya vazirligi, Bosh prokuratura, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

<p>yo‘nalishda sohaga doir qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, odob-axloq qoidalari hamda normativ-huquqiy hujjatlarning ijro holati;</p> <p>sohada korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida ishlab chiqilgan dastur, chora-tadbirlar rejasi va boshqa hujjatlar;</p> <p>ichki idoraviy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalari;</p> <p>korrupsiyaviy huquqbuzarlik va jinoyatlar haqidagi statistik ma‘lumotlar (sud qarori asosida), shu jumladan ko‘rilgan choralar yuzasidan ma‘lumot va hisobotlar;</p> <p>jismoniy va yuridik shaxs vakillari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida ma‘lumot berish imkoniyatini beruvchi aloqa kanallari to‘g‘risida ma‘lumot;</p> <p>o‘tkazilgan tahlillar va jamoatchilik so‘rovlari, shu jumladan onlayn so‘rovnoma va uning natijalari;</p> <p>korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ‘ibot materiallari (slayd, rolik, ma‘ruza matnlari, maqola, buklet, risola va boshqalar);</p> <p>keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida o‘tkazilishi rejalashtirilgan seminar, trening, davra suhbat, muhokama, press-konferensiya va boshqa tadbirlar;</p> <p>joriy etilgan ichki nazorat (komplayens nazorat) tizimi bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar va tatbiq etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.</p>			
<p>5. Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni dolzarblik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan qamrab olinganligi nuqtai nazaridan tanqidiy o‘rganish va zaruratga ko‘ra tegishli qaror loyihasini belgilangan tartibda kiritish:</p> <p>Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-martdagi 137-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma‘lumotlarni uzatish</p>	<p>Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi</p>	<p>2021-yil sentabr</p>	<p>Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, “Kiberxavfsizlik markazi” DUK</p>

	<p>tarmoqlarida, shu jumladan Internetda tarqatish tartibi to'g'risidagi <b>nizom</b>;</p> <p>Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 8-noyabrdagi 394-son "O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy siyosiy jamg'armasi to'g'risida"gi <b>qarori</b>.</p>			
6.	<p>Barcha davlat organlari va tashkilotlariga tatbiq etiladigan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida ochiqlik bo'yicha monitoring o'tkazish, ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash, ochiqlik indeksini hisoblashga qaratilgan Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikani ishlab chiqish.</p>	<p>Normativ-huquqiy hujjat loyihasi</p>	<p>2021-yil 1-oktabr</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Adliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Bosh prokuratura, Oliy sud, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
7.	<p>Quyidagilarni nazarda tutuvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzuridagi Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash:</p> <p>Jamg'armaning asosiy vazifalari;</p> <p>Davlat budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar, Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag'laridan ajratiladigan ajratmalarning aniq miqdorlarini belgilash;</p> <p>jamg'arma mablag'larini sarflashning aniq va shaffof tartibi va mexanizmlari;</p> <p>jamg'arma daromadlari va xarajatlari bo'yicha hisobot berish;</p> <p>mablag'larni taqsimlashda oshkoralik va xolislikni ta'minlash;</p> <p>Agentlik direktoriga Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Jamg'arma mablag'lari hisobidan Agentlikning qo'shimcha xodimlar shtat birliklarini kiritish huquqi.</p>	<p>Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi</p>	<p>2021-yil avgust</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi</p>
8.	<p>Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha davlat xizmatchilari uchun qo'llanmani ishlab chiqish hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan</p>	<p>Qo'llanma</p>	<p>2021-yil sentabr</p>	<p>Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati</p>

	yuritilishi tavsiya etiladigan ijtimoiy tarmoqlar ro'yxatini ("Twitter" yoki boshqalar) shakllantirish.			
9.	Jamoatchilik kengashlari faoliyatini yaxshilash va takomillashtirishga qaratilgan Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyati samaradorligini reyting baholash metodikasini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Metodika	2021-yil sentabr	Adliya vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
10.	"Ochiq Hukumat hamkorligi" (Open Government Partnership, OGP) xalqaro tashkilotiga O'zbekiston Respublikasining a'zo bo'lish shartlari va oqibatlari tahlili, shuningdek, mavjud salohiyat, xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olgan holda asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Takliflar	2021-yil sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Tashqi ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, manfaatdor vazirlik va idoralar
11.	<p>Quyidagilarni amalga oshirish: ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlardan olingan tashqi qarzlarning to'g'risidagi axborotning hajmi va aniq ro'yxatini belgilash, uni detallashtirilgan holda jamoatchilikka yetkazish choralarini ko'rish;</p> <p>budjet shaffofligi bo'yicha xalqaro reytingda yetakchi o'rinlarni egallab turgan ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini doimiy tahlil qilgan holda O'zbekiston Respublikasining Budjet ochiqligi indeksida egallagan pog'onasini oshirish yuzasidan takliflar tayyorlab borish;</p> <p>Open Knowledge Foundation va boshqa shu kabi xalqaro hamda chet el tashkilotlari bilan birgalikda Davlat budjeti mablag'lari aylanmasi ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan Open Spending (Where Does My Money Go, Citizen Budget va boshqalar) loyihalarini, ularning amaliy ahamiyatini hisobga olib amalga oshirish yuzasidan</p>	Kompleks chora-tadbirlar rejasi	2021-yil avgust	Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, manfaatdor vazirlik va idoralar

	<p>asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish;</p> <p>fuqarolar va jamoat birlashmalarini budjet shakllanishi va tasarruf etilishi jarayoniga, shu jumladan dastlabki budjet loyihasi va auditorlik hisobot muhokamalariga real jalb etish mexanizmlarini nazarda tutuvchi amaliy chora-tadbirlarni qabul qilish.</p>			
12.	<p>Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligini kuchaytirish, shu jumladan:</p> <p>davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar vakillari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari vakillarining axborot olish borasidagi huquq va majburiyatlari haqida xabardorligini oshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;</p> <p>davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda fuqarolar, jamoat birlashmalari va tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini, ularning fikr va mulohazalarini hisobga olgan holda, ta'minlash imkoniyatini yaratish, doimiy axborot va muloqot tizimini yo'lga qo'yish;</p> <p>davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o'z yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda bajariladigan ishlarning holatini tanqidiy baho berish imkoniyatini yaratish, bunda davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini samarali ravishda yo'lga qo'yish, shu jumladan kengashning tarkibini shakllantirishda aksariyat a'zolarini tajribaga ega bo'lgan mahalliy va chet ellik ekspertlar, olimlar va boshqa aloqador tashkilotlar vakillaridan tashkil topishini ta'minlash.</p>	Kompleks chora-tadbirlar rejasi	2021-yil sentabr	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, "Yuksalish" umummilliy harakati, "Madad" NNT, manfaatdor vazirlik va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari
13.	<p>"Hukumatning ochiqligi" omili (Open Government Factor, WJP Rule of Law Index) bo'yicha mamlakatning o'rnini yaxshilash maqsadida quyidagi yo'nalishlarda kompleks tahlil</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar dasturi	2021-yil sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Axborot va ommaviy

<p>o'tkazish va natijasi bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish: qonun hujjatlari hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qilish holati;</p> <p>jismoniy shaxslar va yuridik shaxs vakillarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotlardan foydalanish huquqi bilan ta'minlanganlik holati;</p> <p>davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki;</p> <p>davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ochiqlik to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganlik yuzasidan shikoyat qilish mexanizmlari joriy etilganligi va qo'llanilishi holati.</p>		<p>kommunikatsiyalar agentligi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, "Yuksalish" umummilliy harakati, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
---	--	--

Izoh: Normativ-huquqiy hujjatlar zaruratga qarab, tegishli huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasi va predmetiga ko'ra, yagona hujjatga birlashtirilishi yoki qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.06.2021-y., 06/21/6247/0563-son, 09.04.2022-y., 06/22/101/0288-son, 15.06.2022-y., 06/22/154/0524-son; 28.11.2023-y., 06/23/200/0896-son; 20.01.2024-y., 06/24/14/0052-son, 27.04.2024-y., 06/24/67/0307-son; 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son)*